

**“TA’VILOT AL-QUR’ON”DA BIR OYAT UCHUN BITTA SABABI IMOM
MOTURIDIYNING “TA’VILOT AL-QUR’ON” ASARIDAGI SABABI
NUZUL RIVOYATLARI: TAHLIL VA TAQQOSLASH**

Yaxshilikov Abdulaziz Mo‘minovich

Imom Moturidiy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi ilmiy xodimi

Annotatsiya. Ushbu maqolada, Imom Moturidiyning “Ta’vilot al-Qur’on” asaridagi sababi nuzul rivoyatlarining tahlili amalga oshirilgan. Maqola, Moturidiyning Qur’on oyatlarini tushuntirishda rivoyatlarni qanday qo’llaganini va bu rivoyatlarning tafsirlarda qanday muhim o‘rin tutishini ko’rsatadi. Moturidiy asarida ko‘plab oyatlar uchun bitta yoki bir necha rivoyatlar keltirib, Qur’onning tushunilishida qaysi kontekstda qanday rivoyatlar ishlatilganini tahlil qiladi. Maqolada, shuningdek, ayrim oyatlar bilan bog‘liq sababi nuzul rivoyatlarining o‘zaro farqlari va ularning yoritilishi, misollar bilan keltirilgan. Moturidiyning “Ta’vilot al-Qur’on” asaridagi sababi nuzulga oid izohlar Qur’on tafsiri va ilmiy tadqiqotlarda ahamiyatli manba sifatida e’tirof etiladi.

Kalit so'zlar: Imom Moturidiy, Ta’vilot al-Qur’on, sababi nuzul, Qur’on tafsiri, rivoyatlar, Islom ilmlari, Tafsir.

Imom Moturidiyning “Ta’vilotu Ahli sunna”, “Ta’vilot al-Moturidiya”, “Ta’vilot li-Abi Mansur al-Moturidiy” kabi nomlar bilan ham ataluvchi “Ta’vilot al-Qur’on” asari nafaqat tafsir, balki Qur’on ilmlarining barchasi uchun muhim manba sanaladi. Mazkur asarda sababi nuzul rivoyatlari salmoqli o‘rin egallaganini ko‘rish mumkin. Asarning ko‘p o‘rnida bir oyat uchun bitta sababi nuzul berilgan. Ba’zan esa ikki yoki undan ortiq rivoyat ham keltirilgan. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, aksar hollarda rivoyatlar butun bir oyatni qamrab olsada, ayrim o‘rinlarda oyatning faqat bir qismining nuzuliga dalil bo‘ladigan rivoyatlar ham uchraydi.

Ma'lumki, Qur'oni karimdagi hamma oyatlarning ham sababi nuzuli yo'q. Shunga muvofiq Moturidiy oyatlarni tahlil qilish jarayonida ba'zan hech qanday sababi nuzul zikr qilmagan, ayrim hollarda esa bir yoki birdan ortiq rivoyatga o'rin ajratgan. U oyatlar bilan bog'liq ko'pincha bitta sababi nuzul rivoyatini keltirgan. Bir oyat uchun ikki yoki undan ortiq rivoyat naql qilgan o'rinlar esa ozchilikni tashkil qiladi. Moturidiy "Ta'vilot"da 168 ta oyat bilan bog'liq o'rinda bittadan sababi nuzul rivoyati keltirgan¹. Masalan, Moturidiy **"Ayting: "Xoh ixtiyoriy, xoh majburiy holda nafaqa (sadaqa) qilingiz, (baribir) sizlardan sira qabul qilinmagay. Zero, sizlar fosiqlar qavmi bo'ldingiz"**² oyati bilan bog'liq shunday sababi nuzul keltiradi. Unga ko'ra, ba'zilar bu oyat jihod haqida deyishgan, xususan, mo'minlar kabi munofiqlar ham kofirlarga qarshi jihod va janga buyurilgan. Bu buyruqdan keyin ulardan jihodga chiqqanlar bo'ladi. Bir qismi esa boshqasini tayyorlab, o'zlari orqaga o'tib olishadi. Ba'zilar esa istamay jihodga chiqishadi. Shunda mazkur oyat nozil bo'ladi³.

Yana boshqa bir misol shundayki, unga ko'ra, Rasululloh (s.a.v.) o'ziga vahiy tushgach, sahobalar bilan birga maxfiy va oshkora holda odamlarni Allohga iymon keltirishga da'vat qilib, o'n yilga yaqin muddat Makkada xavf-xatar ichida yashaydi. Keyin Alloh Madinaga hijrat qilishni buyuradi. U yerda ham xavfdan xoli bo'lmaydi, kechasi qurol bilan yotib, tongda qurol bilan turadi. Sahobalardan biri: "Yo Rasululloh, xavf-xatarsiz, qurollarni qo'yadigan kunimiz ham keladimi?" deydi. Rasululloh: "Bu holatda yana biroz qolasiz. Ya'ni, sizlardan biringiz, temiri

¹ Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad Moturidiy. Ta'vilot al-Qur'on. – Istanbul: Dor al-Mezon, 2005–2011. I – XVIII j. Baqara surasi 1, 102, 115, 119, 125, 133, 139, 168, 178, 186, 187, 196, 198, 207, 214, 215, 219, 220, 231, 232, 245, 256, 274-oyatlar; Oli Imron surasi 65, 69, 85, 89, 169, 179, 196-oyatlar; Niso surasi 11, 23, 24, 32, 34, 37, 58, 60, 77, 80, 81, 84, 92, 93, 94, 95, 105, 113, 115, 123, 128, 164, 166, 176-oyatlar; Moida surasi 4, 6, 11, 38, 45, 48, 83, 87, 91, 93, 101, 106-oyatlar; An'om surasi 13, 19, 26, 35, 50, 52, 91, 108-oyatlar; A'rof surasi 175, 180-oyatlar; Anfol surasi 19, 26, 35, 36, 67, 68, 70, 72-oyatlar; Tavba surasi 17, 37, 53, 107, 113-oyatlar; Hud surasi 5, 113, 114-oyatlar; Ra'd surasi 30, 43-oyatlar; Nahl surasi 92, 110-oyatlar; Isro surasi 28, 45, 73, 76, 80, 85-oyatlar; Kahf surasi 23–24, 28-oyatlar; Toha surasi 114, 131-oyatlar; Anbiyo surasi 101-oyat; Haj surasi 19, 37, 60, 75-oyatlar; Nur surasi 3, 22, 29, 33, 55-oyatlar; Furqon surasi 20, 27-oyatlar; Naml surasi 80-oyat; Qasos surasi 56-oyat; Ankabut surasi 2, 10-oyatlar; Rum surasi 1-oyat; Luqmon surasi 27, 34-oyatlar; Sajda surasi 18-oyat; Ahzob surasi 5, 35, 36, 43, 51, 53, 57, 58, 59-oyat; Saba' surasi 46-oyat; Yosin surasi 12-oyat; Soffat surasi 50, 64–65-oyat; Fussilat surasi 44-oyat; Sho'ro surasi 27, 38-oyatlar; Josiya surasi 21-oyat; Fath surasi 4, 5-betlar; Hujurot surasi 6-oyat; Rahmon surasi 29-oyat; Voqea surasi 39–40-oyatlar; Hadid surasi 24-oyat; Mujodala surasi 8, 11, 22-oyatlar; Sof surasi 4, 10-oyatlar; Mumtahana surasi 10-oyat; Munofiqun surasi 5, 6-oyat; Muddassir surasi 5-oyat; Infitor surasi 6-oyat; Inshiqoq surasi 1-oyat; G'oshiya surasi 17-oyat; Layl surasi 1–4-oyatlar; Kavsar surasi 3-oyat; Kofirun surasi 6-oyat; Tabbat surasi 1-oyat; Falaq surasi 1-oyat.

² Tavba surasi 53-oyat.

³ Ta'vilot al-Qur'on. – J. VI. – B. 376–377.

(qurol aslahasi) bo'lmagan katta bir jamoatning ichida tizzalarini bukib, qo'llari bilan tizzasini ushlab o'tiradi" deydi. Shunda Alloh taolo **"Alloh sizlardan imon keltirgan va solih amallarni qilgan zotlarga xuddi ilgari o'tgan (imonli) zotlarni (yer yuziga) xalifa (hukmron) qilganidek, ularni ham yer yuziga xalifa qilishni va ular uchun O'zi rozi bo'lgan (Islom) dinini mustahkam qilishni hamda ularning (Makkaddagi) xavf-xatarlaridan so'ng (Madinada) xotirjamlikka aylantirib qo'yishni va'da qildi..."**⁴ oyatini nozil qiladi⁵.

Moturidiy "Ta'vilot"da ba'zan bitta rivoyatni bir necha o'rinda zikr qilgan. Lekin rivoyatlar mazmunan bir bo'lsada, lafzan bir-biridan farqlidir. Misol uchun, Ankabut surasining 10-oyati bilan bog'liq sababi nuzulni ikki o'rinda naql qilgan. Ikki rivoyatni ham oyalarda kelgan "fitna" kontekstida qo'llagan. Ulardan biri mazkur suraning ikkinchi oyati **"Odamlar: "Imon keltirdik" – deyishlari bilangina, sinalmagan hollarida qoldiriladilar, deb o'yladilarmi?!"** tafsirida keladi. Muallif ushbu oyatning sababi nuzuli haqida quyidagicha rivoyatni keltirgan. Unga ko'ra, bu oyat haqiqiy ma'noda Alloh va Rasuliga imon keltirgan, keyin turli aziyatlarga duchor bo'lgani uchun imondan chiqib, kofir bo'lgan bir jamoat haqida nozil bo'lgan. Moturidiy mazkur rivoyatni keltirib, izidan uning Ankabut surasi 10-oyatining nuzuliga ham sababchi ekanini ta'kidlagan⁶ hamda uni ushbu oyatda ham so'zma-so'z bo'lmasa-da, ancha yaqin lafzlar bilan takrorlagan⁷.

Shu kabi Ra'd surasining **"Darhaqiqat, Sizdan ilgari ham (ko'p) payg'ambar yuborganmiz va ularga xotinlar va zurriyotlar berganmiz..."**⁸ oyatiga tegishli sababi nuzul ham ikki marta turli o'rinlarda zikr qilingan.

⁴ Nur surasi 55-oyat.

⁵ Ta'vilot al-Qur'on. – J. X. – B. 192; Tabariy ushbu rivoyatni xuddi shu mazmunda, faqat bir necha lafziy farq bilan Abuloliyadan naql qilgan. Qarang: Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir Tabariy. Jome' al-bayon an Ta'vili oyat al-Qur'on. – Bayrut: Dor al-fikr, 1415/1995. – J. XVIII. – B. 212; Abu Lays Samarqandiy va Vohidiy ham shunga yaqin lafzlar bilan o'xshash rivoyatni keltirgan. Qarang: Abu Lays Samarqandiy. Tafsir as-Samarqandiy (Bahr al-ulum). – Bayrut: Dor al-fikr, 1416/1996. – J. II. – B. 544; Abulhasan Ali ibn Ahmad Vohidiy. Asbobu nuzul al-Qur'on. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1411/1991. – B. 338–339.

⁶ Ta'vilot al-Qur'on. – J. XI. – B. 94.

⁷ Ta'vilot al-Qur'on. – J. XI. – B. 100; Tabariy mazkur oyatning nuzuli bilan bog'liq o'xshash ifodalarni Dahhoqdan rivoyat qilgan. Qarang: Jome' al-bayon an Ta'vili oyat al-Qur'on. – J. XX. – B. 162. Xuddi shunday rivoyatni Ibn Javziy ham qayd etgan. Qarang: Ibn Javziy. Zohid al-masir fi ilm at-Tafsir. – Bayrut: Maktab al-islomiy, 1384–1388/1964–1968. – J. VI. – B. 259.

⁸ Ra'd surasi 38-oyat.

Moturidiy mazkur oyatning tafsirida quyidagicha sababi nuzulni naql qiladi. Unga ko'ra, yahudiylar Payg'ambar (s.a.v.)ning ko'p ayollari va farzandlari borligini tanqid qilib, "Agar u da'vo qilganidek payg'ambar bo'lganida edi na ayollardan foydalanar va na boshqalar kabi farzand istardi. Payg'ambarlik bu ishlarga yo'l bermasdi" deyishadi. Shunda Alloh, ushbu oyatni nozil qiladi⁹. Moturidiy ushbu rivoyatni yana **"Yoki (ular) Alloh O'z fazlidan bergan ne'matlari uchun hasad qilishadimi?..."**¹⁰ oyatida hasadning nimaligini izohlashda qayta takrorlagan. U hasad qilingan narsa sifatida Payg'ambar (s.a.v.)ning ko'p xotinga ega ekanligini izoh o'rnida bergan, lekin bu izohga o'zi qo'shilmagan. Unga ko'ra, Payg'ambar (s.a.v.)ning o'sha davrda ko'p xotinga ega bo'lishi hasad emas, balki qoralash va ayblash sababidir. Chunki u vatda istagan kishi ko'p xotinli bo'la olardi. Moturidiy shu qarashini quvvatlash uchun yuqoridagi oyatga sababi nuzulni quyidagicha keltiradi: "Ular (yahudiylar): "Payg'ambar bo'lganida payg'ambarlik uni ayollardan chetlashtirardi. O'zi to'qqiz-o'nta ayolga uylanib, odamlarga to'rttadan ortiq ayolga uylanishni ta'qiqlaydi" deyishardi. Ularga javob o'laroq Alloh taolo **"Darhaqiqat, Sizdan ilgari ham (ko'p) payg'ambar yuborganmiz va ularga xotinlar va zurriyotlar berganmiz"**¹¹ oyatini nozil qildi"¹².

Moturidiy bitta rivoyatni ikkinchi marta zikr qilganida ko'pincha e'tiborni tortadigan shaklda, ya'ni faqat so'z yuritilayotgan mavzuga tegishli qismni xulosa o'laroq taqdim etadi. Rivoyatlarni bir xil shaklda berish yo'lidan bormaydi. Masalan, Moturidiy Tavba surasining 79-oyati bilan bog'liq sababi nuzulni ikki farqli o'rinda bergan. Bu rivoyatning birinchisini mazkur oyatning tafsirida qayd etgan. Unga ko'ra, ayrim qissalarda eslanishicha Abdurahmon ibn Avf (r.a.) Tabuk g'azotida Allohning roziligiga erishish uchun molining yarmini keltiradi va "Ey Allohning Rasuli! Bu molimning yarmidir, sizga olib keldim. Qolgan yarmini oilamga qoldirdim" deydi. Shunda Payg'ambar (s.a.v.) uning keltirgan molini

⁹ Ta'vilot al-Qur'on. – J. VII. – B. 444; Ushbu rivoyat Ibn Abbosga nisbat berilgan rivoyatlar jamlangan "Tanvir al-miqbos" nomli asarda kelgan. Qarang: Abu Tohir Muhammad ibn Yaqub Feruzobodiy. Tanvir al-miqbos min tafsiri Ibn Abbos. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1412/1992. – B. 267; Shunga o'xshash rivoyatni Abu Lays Samarqandiy qisqaroq shaklda qayd etgan. Qarang: Tafsir as-Samarqandiy (Bahr al-ulum). – J. II. – B. 241 (I – III j.); Vohidiy ham o'xshash sababi nuzulni Kalbiydan naql qilgan. Qarang: Asbobu nuzul al-Qur'on. – B. 280.

¹⁰ Niso surasi 55-oyat.

¹¹ Ra'd surasi 38-oyat.

¹² Ta'vilot al-Qur'on. – J. III. – B. 267.

ham, qoldirgani ham barakali bo'lishini so'rab Allohga duo qiladi. Munofiqlar esa Abdurahmonni ayblab: "Molini faqatgina o'zini ko'rsatish uchun berdi" deyishadi. Ortidan bir faqir musulmon bir "so" xurmo olib kelib, zakot xurmolari orasiga qo'yadi. Payg'ambar (s.a.v.) unga ham xayrli duolar qiladi. Shunda munofiqlar: "Bir so xurmoga Allohning ehtiyoji yo'q" deyishadi. Mazkur hodisa ustiga Alloh: **"Mo'milardan ixtiyoriy iona qiluvchilarini va zo'rg'a topib-tutuvchilarini istehzo ila masxaralaydiganlarni Alloh "masxara" qiladi va ular uchun alamli azob (bor)dir"**¹³ oyatini nozil qiladi¹⁴. Moturidiy mazkur suraning 103-oyatida ko'ngilli holda berilgan sadaqalar masalasida ham yuqoridagiga o'xshash rivoyatni takrorlagan hamda xulosa o'rnida quyidagilarni qayd etgan. Unga ko'ra, Rasululloh Tabuk g'azoti uchun odamlarni yordamga chaqiradi. Shu sababli Abdurahmon ibn Avf buncha, falon kishi esa yana qanchadir olib keladi, Payg'ambar (s.a.v) esa ularni qabul qiladi. Natijada Alloh mana shu kishilar haqida **"Mo'milardan ixtiyoriy iona qiluvchilarini va zo'rg'a topib-tutuvchilarini istehzo ila masxaralaydiganlarni Alloh "masxara" qiladi va ular uchun alamli azob (bor)dir"**¹⁵ oyatini nozil qilgan¹⁶. Ko'rinib turibdiki, ushbu ikkinchi rivoyatda ilk rivoyatdagidek ma'lumotlar tafsilotli berilmagan. Demak, Moturidiy bu yerda faqat ko'ngilli ravishda berilgan sadaqalar mavzusiga urg'u berishga harakat qilgan va mazkur yo'lni tutgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Moturidiy 222 ta oyatga bir-biridan farqli bo'lgan 298 ta rivoyatni qayd etgan. Bu oyatlarning 168 tasiga bittadan rivoyat keltirgan. Natija shuni ko'rsatmoqdaki, Moturidiy ko'p o'rinda bir oyatga bittadan rivoyat naql qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

¹³ Tavba surasi 79-oyat.

¹⁴ Ta'vilot al-Qur'on. – J. VI. – B. 418–419; Muqotil ushbu sababi nuzul rivoyatini kengroq shaklda naql qilgan. Qarang: Muqotil ibn Sulaymon. Tafsiru Muqotil ibn Sulaymon. – Bayrut: Muassasat at-tarix al-arabiy, 1423/2002. – J. II. – B. 185–186; Tabariy buni ko'plab variantda qayd etgan. Qarang: Jome' al-bayon an Ta'vili oyat al-Qur'on. – J. X. – B. 247–252; Shuningdek, Abu Lays Samarqandiy va Vohidiy ham o'xshash rivoyatlarga o'z asarlarida o'rin ajratgan. Qarang: Tafsir as-Samarqandiy (Bahr al-ulum). – J. II. – B. 78; Asbobu nuzul al-Qur'on. – B. 259–260.

¹⁵ Tavba surasi 79-oyat.

¹⁶ Ta'vilot al-Qur'on. – J. III. – B. 445.

1. Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir Tabariy. Jome' al-bayon an Ta'vili oyat al-Qur'on. – Bayrut: Dor al-fikr, 1415/1995. – I–XXX j.
2. Abu Lays Samarqandiy. Tafsir as-Samarqandiy (Bahr al-ulum). – Bayrut: Dor al-fikr, 1416/1996. – I–III j.
3. Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad Moturidiy. Ta'vilot al-Qur'on. – Istanbul: Dor al-Mezon, 2005–2011. I – XVIII j.
4. Abu Tohir Muhammad ibn Yaqub Feruzobodiy. Tanvir al-miqbos min tafsiri Ibn Abbos. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1412/1992.
5. Abulhasan Ali ibn Ahmad Vohidiy. Asbobu nuzul al-Qur'on. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1411/1991. – 568 b.
6. Ibn Javziy. Zod al-masir fi ilm at-Tafsir. – Bayrut: Maktab al-islomiy, 1384–1388/1964–1968. – I–IX j.
7. Muqotil ibn Sulaymon. Tafsiru Muqotil ibn Sulaymon. – Bayrut: Muassasat at-tarix al-arabiy, 1423/2002. – I–V j.